

Ilimga baxshida umr

Uzoq yillardan buyon institutimizning "Gidromelioratsiya" fakultetida dekan o'rinosari sifatida samarali faoliyat yuritib kelayotgan Usmanov Nail Kayumovich 25 aprel sanasida o'zlarining 72 yoshini qarshiladilar. Nail Kayumovich nafakat olim, bag'rikeng, shirinso'z ustoz-murabbiy hamdir. Institut rektori nomidan fakultet dekani tabrigi va jamoaning esdalik sovg'alari topshirildi.

El-yurt hurmatini meros qilib bo'lmaydi. Unga faqat umr bo'yи halol, fidokorona mehnat qilib, yonib yashagan kishilarga erishadi. Nail akani mana shunday kishilar toifasidan ekanligingizdan butun jamoamiz va do'st-ubirodarlarining, yaqinlaringiz faxrlanadi. Toshkent irrigatsiya va qishoq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti "Gidromelioratsiya" fakulteti jamoasi Nail akaga Ollohdan uzoq umr, sihat-salomatlik va mamlakatimiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan kelajak faoliyatiningizda kuch-quvvat va ulkan zafarlar tilashdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov